


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy davrda 16 309,1 mlrd so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati 2020- yilning mos davriga nisbatan 93,4 foizni tashkil etdi.

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 951,7 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 5,8 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 24,9 foiz o‘zlashtirildi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 15 357,4 mlrd. so‘m yoki jami investitsiyalar hajmining 94,2 foiz va o‘tgan yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 112,7 foiz o‘zlashtirildi.







Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (2021- yil yanvar-dekabr)

	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, % da	hajmga nisbatan, % da
Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar	16 309,1	115,1	100,0
Markazlashgan investitsiyalar:	951,7	24,9	5,8
Budjet mablag'idan	649,5	198,4	4,0
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	67,7	21,1	0,4
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostida bo'lgan chet el kreditlari	157,3	5,1	1,0
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	77,2	117,7	0,4
Markazlashmagan investitsiyalar:	15 357,4	112,7	94,2
Korxonalar o'z mablag'lari	2 642,4	82,9	16,3
aholi mablag'lari	1 467,8	110,7	9,0
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	9 662,1	110,8	59,2
tijorat banki kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	1 585,1	4,0 m.	9,7


Markazlashgan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da (2021- yil yanvar- dekabr)



Markazlashmagan investitsiyalar manbalari bo'yicha ulushi, % da
(2021- yil yanvar- dekabr)



Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(jami hajmdagi ulushi, % da)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning eng yuqori ko'rsatkich to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar mablag'i hisobiga to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 110,8 foizni tashkil etdi.




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

Shahar va tumanlar	Jami		shu jumladan: xorijiy investitsiya va kreditlar	
	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %	mlrd. so'm	o'sish sur'ati, %
➤ Viloyat bo'yicha	16 309,1	93,4	9 819,4	83,0
shaharlar:				
➤ Navoiy	3 939,8	77,2	1 645,3	47,2
➤ Zarafshon	1 652,6	91,2	1 441,1	98,9
➤ G'ozg'on	68,8	1 2,3 m.	30,5	5,5 m.
tumanlar:				
➤ Karmana	2 151,0	119,5	1 234,1	149,1
➤ Konimex	1 461,7	77,8	1 065,8	71,9
➤ Qiziltepa	633,4	109,1	65,6	56,7
➤ Navbahor	345,4	87,8	49,1	57,4
➤ Nurota	520,8	138,9	178,9	181,8
➤ Tomdi	4 074,6	132,1	3 988,7	132,6
➤ Uchquduq	225,6	16,3	91,6	7,6
➤ Xatirchi	1 235,4	117,9	28,7	49,4

Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari, % da



Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar ulushi, % da







Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi

	Jami	Shu jumladan, mulkchilik shakllari bo'yicha	
		davlat	nodavlat
Jami, mlrd. so'm	16 309,1	7 539,0	8 770,1
<i>shu jumladan:</i>			
umumiy hajmga nisbatan, % da	100,0	100,0	100,0
mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo'jalik jihozlari	61,4	67,9	55,8
qurilish-montaj ishlari	35,9	29,4	41,4
boshqa xarajatlar	2,7	2,7	2,8

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibi, mlrd. so'm




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi, % da




Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida Navoiy viloyati bo‘yicha mashina, uskunalar, transport vositalari ishlab chiqarish va xo‘jalik jihozlari ulushi- 61,4 foiz, qurilish-montaj ishlari- 35,9 foiz hamda boshqa harajatlar- 2,7 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilishi: qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 545,5 mlrd. so‘m (jami investitsiyalar hajmidagi ulushi 3,3 foiz), tog‘- kon sanoatida 51,2 mlrd. so‘m (0,3 foiz), qayta ishlash sanoati jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 809,9 mlrd. so‘m (66,3 foiz), elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash 1 239,9 mlrd. so‘m (7,6 foiz), qurilish sohasida 591,6 mlrd. so‘m (3,6 foiz), ulgurji va chakana savdo sohasida 261,4 mlrd. so‘m (1,6 foiz), tashish va saqlash 405,6 mlrd. so‘m (2,5 foiz) hamda boshqa faoliyat turlari bo‘yicha 2 404,0 mlrd. so‘m (14,8 foiz) ni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibi
(umumiy hajmga nisbatan % da)



2021- yil yanvar-dekabr oylarida umumiy maydoni 817,6 ming kv.m. (2020- yilning mos davriga nisbatan 93,3 %) bo'lgan 2 807 xonadonga ega bo'lgan turar - joylar, ulardan 594,5 ming kv.m. (98,1 %) bo'lgan 2 069 ta xonadonlar qishloq joylarda ishga tushirildi.



Bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'atlari
(2021- yil yanvar-dekabr oylari)


Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Navoiy viloyatida jami 5 079,0 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 115,1 % ni tashkil etdi.






Qurilish ishlari hajmining tarkibi va ulushi (2021- yil yanvar-dekabr oylari)

Amalga oshirilgan qurilish ishlari mulkchilik shakli, davlat va nodavlat bo'lgan korxonalar va tashkilotlar tarkibi bo'yicha



Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo'yicha shakllanadi.



Ma'lumot uchun: qurilish ishlari hajmi bu – o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari, yangi qurilish, kapital va joriy ta'mirlash hamda boshqa pudrat qurilish ishlari natijasidir.

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 1 291,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2020- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 113,4 % ni, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 25,4 % ni tashkil etdi.




Bajarilgan qurilish ishlari hajmida yirik tashkilotlarning ulushi va o'sish sur'ati, % da





Qurilish ishlari umumiy hajmida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, % da



Kichik korxonalar va mikrofirmalar


- 2021- yil yanvar-dekabr
- 2020- yil yanvar-dekabr

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 2021-yil yanvar-dekabr oylarida qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 46,8 foizi to'g'ri kelib, 2020-yil yanvar-dekabr oylari ko'rsat-kichiga nisbatan 1,6 foiz punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2020-yilning mos davriga nisbatan 119,7 foiz ni tashkil etgan holda 2 377,0 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.



Qurilish ishlari umumiy hajmida norasmiy sektorning ulushi



ulushi % da, mlrd. so'm



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 928,9 mlrd. so'm yoki 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 87,6 foiz qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 4 150,1 mlrd. so'm qurilish ishlari bajarilib, o'sish sur'ati 123,9 foizni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, % da



Davlat mulki



Nodavlat mulk



Hududlar kesimida mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari (2021- yil yanvar-dekabr oylari)


	Qurilish ishlari hajmi, mlrd. so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk*	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd. so'm	ulushi, % da
Viloyat bo'yicha:	5 079,0	928,9	100,0	4 150,1	100,0
Navoiy sh.	1 206,8	216,4	23,3	990,4	23,9
Zarafshon sh.	1 051,3	677,3	72,9	374,0	9,0
Karmana t.	530,0	-	-	530,0	12,8
Konimex t.	87,9	-	-	87,9	2,1
Qiziltepa t.	814,9	-	-	814,9	19,6
Navbahor t.	374,9	-	-	374,9	9,0
Nurota t.	300,9	-	-	300,9	7,3
Tomdi t.	48,9	-	-	48,9	1,2
Uchquduq t.	72,3	-	-	72,3	1,7
Xatirchi t.	591,1	35,2	3,8	555,9	13,4

* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda



Navoiy viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari, % da

2020- yil, yanvar-dekabr



2021- yil, yanvar-dekabr



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy hamda yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.




Bino va inshootlar qurilishi

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 28,7 foiz tashkil etib, 2020-yil yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 1,1 foiz punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2020-yilning yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 10,5 foiz punktga ko'payib, 61,2 foizni tashkil etdi.


Norasmiy sektorning ulushi esa 2020-yil yanvar-dekabr oylari ko'rsatkichiga nisbatan 5,6 foiz punktga ko'payib, 10,1 foizni tashkil etdi.



Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 20,4 foizni tashkil etdi va 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 0,9 foiz punktga ko'paydi.


Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 79,6 foiz (2,8 foiz punktga koʻpayish).



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 5,7 foiz punktga kamaydi va 50,9 foizni tashkil etdi.

Qolgan 49,1 foizi kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga toʻgʻri kelib, 2020-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 19,3 foiz punktga koʻpaydi.





Hududlar kesimida qurilish ishlari (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

Eng yuqori hajm (mlrd. so'm)

1 Navoiy sh.
1 206,8

2

Zarafshon sh.
1 051,3

1

Qiziltepa t.
814,9

3



Kichik hajm (mlrd. so'm)

Tomdi t.
48,9

Uchquduq t.
72,3

Konimex t.
87,9

